



O'ZBEKISTON MINTAQASIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

Lutfullayeva N.B.

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti,
Ekologiya va atrof muhit muhofazasi kafedrasi katta o'qituvchisi.
Toshkent, O'zbekiston.*

Abdihakimov B.I.

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti,
Elektronika va avtomatika fakulteti 3-bosqich talabasi. Toshkent.*

Mamatmo'minov O.M.

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti,
Elektronika va avtomatika fakulteti 3-bosqich talabasi.
Toshkent, O'zbekiston.*

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda Respublikamizda hozirgi kundagi ekologik muammolar va ularni hal etish uchun keng ko'lamma olib borilayotgan chora tadbirlar, Respublikamiz hududlarida, hususan Toshkent shahridagi havoni ifloslanishini keltirib chiqarayotgan sabablarni bartaraf etish. Orol va orol bo'yidagi muammolariga yechim toppish uchun Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan qarorlarni amalda qo'llash chora tadbirlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: ekologiya, tabiat, muammo, ijtimoiy-ekotizm, Orol dengizi, geologiya, atmosfera,mintaqa, sanoat,qarorlar,ifloslangan havo va chang.

Hozirgi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va vaziyatni yaxshilash eng katta muammolardan biri bo'lib qoldi. Hozirgi vaqtga kelib tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining yomonlashuvi natijasida atrof-muhit, ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga duchor bo'ldi.

Respublikamiz ekologiyasini muhofaza qilish va uni yaxshilash uchun, ekologik tanazzulning oldini olish, yurtimizning qadimda ma'lum bo'lган ekologik holatini qayta tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.Ona tabiatni istiqbolini o'ylagan holda munosabatda bo'lismak, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiyligicha qoldirish hozirgi kunning asosiy majburyati bo'lib qoldi.Chunki tabiatga nisbatan inson qanaqa munosabatda bo'lsa tabiat ham shunday munosabatda bo'ladi.



Yangi O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqasi bo'lib kelajakda dunyo tan oladidan kimyo, mashinasozlik, enirgitika, oziq-ovqat, tiransport texnalogiyalarini yanada rivojlantirish ustivor maqsad qilib qo'yilgan.

Mamlakatimizdagi katta ekologik muammolar quyidagilar:

1. Katta maydonidagi – sanoat inshaotlari joylashgan manzillarda ya'ni Navoiyda, Olmaliqda, Angrenda, Chirchiqda, Farg'onada, Marg'londa va boshqa manzillardagi ekologik muammolari. Bu manzillarda tabiat ekologiyasi narmal emas. Chunki sanoat inshootlari va konlardan chiqayotgan turli zararli gazlar va chiqindilar atrofdagi ekologik muammolarni keltirib chiqarmasdan qolmaydi.

2. Agrosanoatdagi ekologik muammolar.

3. Ichimlik suvlari va oqovq suvlarini sanoat chiqindilari va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham dolzarb muammolardan biridir.

4. Orol va orol bo'yli muammolari.

5. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishdagi muammolar.

Bugungi kunda odam ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda shiddat bilan harakatlanmoqda. odamlarning ekologik jarayonlarga ta'siri ya'ni yomon munosabatda bo'lishi orqali XX asr o'rtalariga kelib ekologik muammolar ortib borishiga olib keldi va bu muammolar keskinlashuviga olib ketdi.

Hozirgi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirmasa ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'rmonlar kamayishi, daraxt kesib tashlanishi, yerlar dehqonchilik qilish uchun o'zlashtirildi, kimyoviy dorilardan foydalandi, korxonalardan chiqayotgan zararli gaz va chiqindilar orqali toza havo va tabiatga jiddiy zarar yetkazildi. Shularni hammasi ekologiyani o'zgarib borishiga va muvozanatining yomonlashishiga olib keldi.

Vujudga kelgan Orol dengizi va orol bo'yli muammosi bilan bog'liq achinarli ekologik -iqtisodiy va ijtimoiy holatni yaxshilash, Orol dengizini asrab qolish uchun aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. Orol bo'yli aholisini yaxshi sanitar sharoitlar va oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun Markaziy osiyo davlatlari bilan birlashgan holda qisqa vaqt ichida yagona suv xo`jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har-bir Respublikaning Orol dengiziga quya oladigan suvi, ya'ni Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi. chullahsgan maydonlar xavfli kasalliklarni tarqatuvchi kemiruvchi bilan to'lib bormoqda. Orol bo'yining sanitar-epidemiologik ahvoli sho'rlikni ortib borishi oqibatida nihoyatda og'irlashmoqda. Agar tezlik bilan tabiatda paydo bo'layotgan muammolar hal qilinmasa insoniyat va hamma jonzotlarning hayoti xavf ostida qoladi. Biz tabiatga



muhtojmizmiz, biz tabiatsiz hayot kechira olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich yerini ko'z qorachig`iday asrashimiz, tabiat ne'matlardan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo qayg'urishimiz lozim.

Ma'lumot uchun: Kelgusi 30 yilda iqlim o'zgarishi va uning oqibatlarini yaxshilash uchun jahonda 8 trln dollar sarflanishi va 2050 yilgacha dunyo Yalpi ichki mahsuloti 3% kamayishi taxmin qilinmoqda.

Meteorologik kuzatuv natijalari respublikamiz hududida chang bo'ronlari ortib borishi, yerlarning yuzi degradatsiyaga uchrashi, suv resurslarining kamayishi kabi salbiy oqibqlar kuzatilmoqda.

Masalan kuzatuvlar natijasida 7 yil eng issiq yil bo'lganini shundan, 2016 (+1,7°C) va 2021 (+1,9°C) yillarda maksimal harorat qayd etilgan.

Bahor oylarini oxiri va yoz oylarida anomal issiq davrlarning takroriyligi shiddat bilan ortib bormoqda. Orol bo'yi hududlari –Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlari shu jarayonga ko'proq moyildir.

Oxirgi 6 yil ichida ushbu hududda deyarli har yili maksimal havo harorati rekordlari o'rnatilmoqda. Ushbu hududlarda havo harorati 40° va undan baland bo'lgan kunlar soni ortib, anamal issiq kunlar soni 25 dan 40 kungacha (me'yor 15-30 kun) yetdi.

Oxirigi 10 yilda olib borilgan monitoring taxlili natijalari quyidagilarni ko'rsatmoqda: Atmosfera havosining – chang bilan ifloslanishi ko'rsatkichi Nukus (2,0-3,3 marta), Buxoro (1,3-2,7 marta) shaharlari uchun xususiyatli bo'lsa, oxirgi yillarda Toshkent (2,5 REM), Farg'ona (1,3 REM), Samarqand (1,3 REM), Guliston (1,3REM), Angren, Andijon, Namangan shaharlarida (1.3 REM) qayd etilgan. Shahar havosida chang miqdorining bunday oshishi iqlim xususiyatlari va tuproq tuzilmasi, qurilish va yo'l qurilishi ishlarida sanitar me'yorlariga yetkarlicha rioya qilmaslik bilan izohlanadi.

Shu bilan birga Bekobod, Marg'ilon, Navoiy, Namangan, Toshkent va Farg'ona shaharlarida azot oksidi bilan ifloslanish 1.3 REM dan kuzatilmoqda. Angren, Olmaliq va Farg'ona shaharlarida oltingugurt oksidi bilan 1.1-1.2 ga, Olmaliq, Andijon, Qo'qon, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va Chirchiq shaqarlarida amiak-1.3-2.3 gacha atmosfera havosini ifloslanishi REM dan ortmoqda.

Toshkent shahrining umumiyl maydoni 35 630 ga ni tashkil qilib, shundan jami yashil maydon 757ga, yashil yuzali maydonlar yuzasi (gazon) 225ga ni tashkil qilmoqda (26,7%).



Xalqaro talablarga ko‘ra, bioxilmassillikni saqlash uchun yashil maydon va yashil qoplamlari maydonlar hajmi umumiyligi maydonga nisbatan kamida 12 %ni tashkil etishi kerak.

Ekologik muhit ifloslanishi tubdan yaxshilash hamda atmosfera havosiga yetkazilayotgan salbiy oqibatlarni kamaytirish maqsadida quyidagilar:

1. Energiya sarfi katta bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalarida yangi energiya texnologiyalarni hamda muqobil energiya manbalari miqdorini oshirish;

2. Respublikada ishlab chiqarilayotgan motor yonilg‘isi va avtotransport vositalari ekologik ko‘rsatgichlarini yuqori darajalarga keltirish.

3. Ishlab qarish korxonalaridagi ustuvor turg‘un (tashkillashtirilgan) ifloslantiruvchi manbalardan chiqarilayotgan zararli moddalarni tahlil qiluvchi avtomatik tizimlar bilan jihozlash va zamonaviy filtrlaridan qo’llash chora-tadbirlar rejasini belgilab olish;

4. Foydalanishda bo‘lgan avtotransport parkini yangilash, ulardan foydalanishda muqobil energiya turlariga bosqichma-bosqich o‘tishni amalga oshirish, shuningdek, yo‘llarda velosipeda harakatlanish tizimini foydalanishga kiritish va kerakli infratuzilmalar, ya’ni velosiped yo‘lakchalari va veloturargohlarni barpo etishga alohida e’tibor qaratish, aholini jamoat transportidan ko’proq fofdalanishi uchun qulayliklar yaratib berish;

5. Respublikada yashil maydonlar hamda yashil qoplamlari maydonlarni ko‘paytirish hamda bioxilmassillikni asrash uchun aniq chora-tadbirlarni belgilash taklif etiladi.

Ekotizimlar tanazzuli yanada kuchayishining oldini olishda, eng avvalo, Orol dengizi hududidagi hamkorlik masalalariga alohida to‘xtalib, Prezidentimiz hozirgi vaqtda O‘zbekistonda Orolbo‘yidagi ekologik va ijtimoiy vaziyatni yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganini qayd etdi.

– So‘nggi bir necha yil davomida Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million hektar o‘rmonzorlar yaratildi. Yaqin ikki yilda yana 400 ming hektar yashil hududlar barpo etish rejalashtirilmoqda. Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, shuningdek, Orolbo‘yidabioxilma-xillikni saqlash uchun 3,5 million hektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo‘riqxonalar va davlat himoya hududlari yaratildi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha katta miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi 7 yil mobaynida mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlarning to‘rtadan bir qismini tashkil



etadigan 1 million getkardan ortiq maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi – bu, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlarining global miqyosdagi eng o‘tkir muammolardan birini yechish bo‘yicha ko‘p tomonlama hamkorlik borasidagi noyob tajribasidir, - dedi Prezidentimiz.

Avvalo, muammolarga yangi qonun loyihalari yaratish, borlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan targ’bot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, hayotga izchil tatbiq etish.

Orol fojiasi oqibatlarini yaxshilash, orol bo‘yi aholisini salomatligini muhofaza qilish, ularni turmush darajarini yanada yaxshilash. Umumiy qilib aytganda ona tabiatga yaxshi munosabatda bo‘lish va asrab avaylash, keljak avlotga tabiatni busbutun yetkazish hamda muammolarni hal etishga barchamiz oz hissamizni qo’shishimiz lozim va burchimizdir.

Ko‘rinib turibdiki, oldimizda turgan vazifalar nihoyatda zarurdir. Ularni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish har birimizdan bor bilim, kuch va mahoratimizni ishga solishni, yanayam ochiqroq aytadigan bo‘lsak, Vatanimiz taraqqiyoti yo‘lida yonib yashashni talab etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ekoliya va atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent
3. Alimov T L Rafikov AA Ekologik xatolik saboqlari T 1995 b 61
4. Ergashev A Ergashev T Ekoliya biosfera va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent “yangi asr avlodlari” 2005 yil b 58
5. Лутфуллайева Н.Б., Маматмуминов О.М. & Отамуродов Д.З. (2023) ВЛИЯНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА И ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ЭКОЛОГИЮ ОРГАНИЧИСКАЯ СВЯЗЬ МЕЖДУ ПРИРОДОЙ И ОБЩЕСТВОМ. Proceedings of international Educators Conference, 2(11), 19-23.
6. <https://xs.uz/uz/post/ekologik-muammolar-echimiga-amalij-ishlar-orqali-erishiladi>
7. <https://fayllar.org/ozbekistondagi-ekologik-muammolar-va-uni-hal-qilish-yollari.html>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/02/eco-ministry/>
9. <https://azkurs.org/ekalogik-muammolar-va-ularning.html>